Эркинов Шахзод Баходир ўғли	
O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hisobiga budjet daromadlari barqarorligini baholash amaliyoti.....	1254
Ikramov Ravshan Amanbayevich	
Uzum-vinochilik mahsulotlari bozorida eksportni diversifikatsiyalash strategiyalaridan foydalanish	1261
Azadova Bonuposhsha Alisher qizi	
Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslari.....	1266
Sadikov Iskandar Gayratovich	
Milliy soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirishda ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....	1272
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari.....	1277
Qorriyeva Shahnoza Safarboyevna	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari	1281
Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna	
Xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirishning ahamiyati va zaruriyati	1284
Mirzayev Qulmamat Janzakovich, Djurakulov Shoxrux Baxtiyorovich	
Yog'-moy korxonalarining xom ashyo ta'minotini amalga oshirishning zamonaviy konsepsiyalari	1289
Jo'rayeva Nodiraxon Qurbonovna	
O'zbekistonda mulkdorlar sinfini shakllantirishning ilmiy-metodologik yo'nalishlari va rivojlanish bosqichlari.....	1294
Berkinov Bazarbay Berkinovich	
O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlanishi istiqbollarini ta'minlash omillari.....	1300
X. I. Boyev	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar innovatsion faoliyatini boshqarishda jahon tajribasi.....	1305
Saipova Dilnoza Shuxratovna	
Mintaqa sanoatini innovatsion rivojlantirish indikatorlarining iyerarxiyasi.....	1310
Muhammadiyev Sardorbek Shokir o'g'li	
Korxonalarda moliyaviy qarorlarni qabul qilishning muhimligi.....	1315
Allayarov Shamsiddin Amanullaevich, Yoqubov Madaminbek Abdurahim o'g'li	
Mehmonxonalarda boshqaruv tizimi va uni takomillashtirish.....	1320
Qalandarova Gulnoza, Botirova Zumrad	
O'zbekistonda maktab va maktabgacha talim tizimini moliyashtirishni takomillashtirish.....	1324
Boltaboyev Murodbek Aybekovich	
Mehnat resurslarini samarali boshqarishda jahon tajribasi.....	1329
Xonnazarova Dilobar Qutbiddin qizi, Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich	
Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash.....	1333
Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich	
O'zbekiston Respublikasida "Iqtisodiy erkinlik indeksi"ning davlat aralashuvi darajasi yo'nalishida yuqori natija qayd eta olish imkoniyatlari va buning oqibatlari	1337
Qoraboyev Bobur Umarovich, Abdiyev Mansur Musurmonovich, Ravshanov Shaxriyor Shuhratovich, Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li	
Improving the Participation of Joint-Stock Companies in the Capital Market.....	1343
Muminov Shohjahon Suyun ugli	
Mamlakatimizda atrof-muhitni himoyalashga ixtisoslashgan ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish shakllari.....	1347
Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
Mahalliy farmatsevtika mahsulotlari bozori va iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish xususiyatlari.....	1353
Bobojonov Baxrombek Ruzimovich	
Soliq va buxgalteriya hisobini yuritishda asosiy vositalar hisobining dolzarb masalalari	1359
Arifxanova Xabiba Shuxratovna	
Institutsional islohotlar sharoitida mamlakatni moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari.....	1365
Mamatov Axmetjon Atajanovich, Ermo'minov Iskandar Ziyodillayevich	

MAHALLIY FARMATSEVTIKA MAHSULOTLARI BOZORI VA ISTE'MOLCHILAR XULQ- ATVORINI O'RGANISH XUSUSIYATLARI



Bobojonov Baxrombek Ruzimovich
PhD, TDIU "Marketing" kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada farmatsevtika sanoatida mijozlar bilan munosabatlarning an'anaviy tizimi hamda raqamli texnologiyalarni rivojlanishini ahamiyati va zarurati nazariy ma'lumotlar asosida ochib berilgan. Shuningdek, ushbu maqolada mijozlarga yo'naltirilgan yondashuvlardan raqamli transformatsiyalarga qadar iste'molchilarning xatti-harakatlari bilan belgilanadigan davrda muvaffaqiyatga olib keladigan asosiy yo'nalishlarini o'rganadi.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, farmatsevtika bozori, mijoz, farmatsevtika sanoati, korxonalar, bozor, innovatsiya.

Abstract: This article, based on theoretical data, reveals the importance and necessity of the traditional system of customer relationships and the development of digital technologies in the pharmaceutical industry. This article also examines the key success factors in an era driven by consumer behavior, from customer-centric approaches to digital transformation.

Key words: Digital technologies, pharmaceutical market, customer, pharmaceutical industry, enterprise, market, innovation.

Аннотация: В данной статье на основе теоретических данных раскрывается важность и необходимость традиционной системы взаимоотношений с клиентами и развития цифровых технологий в фармацевтической отрасли. В этой статье также рассматриваются ключевые факторы успеха в эпоху, определяемую поведением потребителей: от клиент ориентированных подходов до цифровой трансформации.

Ключевые слова: Цифровые технологии, фармацевтический рынок, заказчик, фармацевтическая отрасль, предприятие, рынок, инновации.

KIRISH

O'zbekiston farmatsevtika bozorida mahalliy korxonalarining marketing strategiyasini ishlab chiqish iste'molchilarni segmentlash, farmatsevtika vositalarini to'g'ridan-to'g'ri sotishni samarali tashkil etish va har bir iste'mol segmenti uchun marketingning ta'sirchan innovatsion vositalarini yaratishni talab qiladi. Farmatsevtika mahsulotlarini to'g'ridan-to'g'ri sotishni tashkil qilishda iste'molchilarning xulq-atvori omillarini bilish, shuningdek, uning o'zgarishiga moslashish qobiliyatiga ega bo'lish katta ahamiyatga ega. "Aholini sifatli, samarali va xavfsiz farmatsevtika mahsulotlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilash, farmatsevtika tarmog'iga ilg'or ilmiy-texnika yutuqlari va innovatsiyalarni joriy etish orqali tarmoqda ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga oshirish, ichki bozorni ta'minlash darajasini natural hajmda 80 foizga yetkazish" vazifasi belgilab berildi. Belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish farmatsevtika bozorining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mavjud ishlanmalardan to'liq foydalanish, dinamik rivojlanayotgan farmatsevtika bozorida iste'molchilarning xulq-atvor omillarini, shu jumladan ularning dinamikasi va ularga ta'sir etuvchi omillarni prognoz qilib, ularni aniqlash muammolarini hal qilish, farmatsevtika mahsulotlari savdosini samarali tashkil etishda iste'molchilar xulq-atvorini aniqlash va baholash yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarga ustivor darajada e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida" PF-60-son, 2022-yil 21-yanvardagi "2022–2026-yillarda Respublikaning farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-55-son Farmonlari, 2019-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika tarmog'ida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4554-son qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur monografiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Jahon amaliyotida farmatsevtika tovarlar bozorlarida faoliyat yurituvchi mahalliy ishlab chiqaruvchi va savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarining maqsadli segmentlarga samarali ta'sir ko'rsatish maqsadida iste'molchilarning xulq-atvorini o'rganish marketing faoliyatining muhim elementiga aylanib bormoqda. Farmatsevtika bozori ham bundan mustasno emas.

Xalqaro amaliyotda farmatsevtika tovarlari bozori iste'mol tovarlarini bozorining bir qismi sifatida qaraladi. "Farmatsevtika tovarlar bozori va uning subyektlari o'rtasida dori-darmonlarni va boshqa dorixona tovarlarini sotib olish-sotish, retsept va iste'mol qilish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar majmui" sifatida qaraladi.

Farmatsevtika bozorining asosiy elementlari talab, taklif, narx-navo va raqobat bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'liqdir. Farmatsevtika bozorini bilish bemorlarni dori vositalari iste'molini har tomonlama tahlil qilish, kasallanish jarayoni va shakli, bemorlarning iste'mol qilish qobiliyatini bilish, farmatsevtika bozoriga moslashish, farmatsevtika bozoriga ta'sir o'tkazish, farmatsevtika marketingining asosiy tamoyillaridir.

METODOLOGIYA

Dori vositalarining mahsulot sifatidagi ijtimoiy ahamiyatini farmatsevtika bozorining ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlardagi o'rni bilan belgilash va quyidagicha ifodalash mumkin: ^[1]

- aholini dori vositalari bilan ta'minlashda shifokorlar, farmatsevtlar va bemorlarning o'zaro munosabatda bo'lishi talab etiladi;
- dori vositalariga oid ma'lumotlarni to'la bilmasligi tufayli, bemor beixtiyor shifokorlar, farmatsevtlar ko'rsatmasiga binoan ularning iste'molchilarga aylanadi;
- kam talab qilinadigan dori vositalarining mavjudligi;
- dorixona xodimi, farmatsevt, farmatsevt-assistentlari mehnatining ijtimoiy xususiyatga egaligi, farmatsevtlarning mehnat sarfi va pirovard natijasi orasidagi bog'liqlikning uzviy emasligi;
- dorixona tarmoqlarida xo'jalik yuritishning o'ziga xosligi.

Marketing tizimida qo'yilgan maqsadga erishish uchun iste'molchilar va boshqa subyektlarga ta'sir etish uchun marketing vositalari, ya'ni marketing usullari yig'indisi, uslublari zarur. Shunday vositalaridan marketing-MIKS (Marketing 4P), marketing kompleksi bo'lib hisoblanadi. Bularni marketing nazariyasiga 1964-yilda birinchi bo'lib Garvard biznes maktabi professori Borden kiritgan ^[2]. Marketologlarni tayyorlash tizimida marketing kompleksi "4R" deb nomlanib, Makkarti tomonidan 1960-yilda bu model taklif etilgan ^[3]. Farmatsevtika marketingida mazkur marketing kompleksi o'ziga xos jihatlari quyidagilar:

1. Product – dori vositalari, tibbiy buyumlar;
2. Price – narx;
3. Place – dorixona joyi, taqsimoti, sotish;
4. Promotion – siljitish, ulgurji dorixonalar, rag'batlantirish, kommunikatsiyalar;

Farmatsevtika marketingi samaradorligi mijozlar bilan ishlash va ularni ehtiyojlarini samarali qondirish bilan bog'liqdir. Iste'molchilarning, bemorlarning ehtiyoji va muhtojligini qondirish bo'yicha farmatsevtika faoliyatini boshqarish uchun dori vositalariga talab va taklifni shakllanishi bo'yicha ilmiy nazariy mulohazalarni ko'rib chiqilishi lozim.

Olimlar tomonidan mahsulotlarni sotishning barqaror o'sishida mijozlarning farmatsevtika tovarlarga bo'lgan ishonchi, farmatsevtika savdosining turli chakana formatlarini yuzaga kelishi, infratuzilmaning rivojlanishi, iste'molchilarning talabi hamda aholining daromadlari ko'payishi bilan bog'liqdir. Shuningdek, "marketing kompetensiyasi" - konsultant yoki tashkilot tomonidan to'plangan marketing bilimlari yangi bilimlar, usullar va texnologiyalarni rivojlantirish uchun ishlatiladi va amaliy faoliyatda ham, iste'molchilar bilan aloqada ham o'zini namoyon qiladi" ^[4].

Ambler, T. ^[5] tadqiqotlarida sotish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillarning turli tasniflari va iste'molchilar to'g'ridan-to'g'ri savdoni samarali tashkil etishda, reklama qilishda va tovarlarni sotib olishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan xarid to'g'risida qaror qabul qilish jarayonlari o'rganilgan. Mashhur tasniflardan birining asosini J.F. Krolaru ^[6] ishlab chiqqan, u tasniflashning asosini Savone (Sesurite - xavfsizlik, Affestion-moyillik, Bien etre-qulaylik, Orgueil- mag'rurlik, Yesonomis - iqtisod) deb qisqartirgan ehtiyojlar nazariyalari ham diqqatga sazovor.

Xavfsizlik-birinchi navbatda, xizmat yoki mahsulot olib keladigan xotirjamlik bilan bog'liq bo'lib, bu ehtiyoj mahsulotni ishlatish paytida kuchlilik, ishonchlilik, kafolat kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

Moyillik-iste'molchilarni odatlanib qolgan ma'lum obyektlar yoki shaxslar bilan birlashtiradigan munosabatlardir. Bog'lanishdan ozod bo'lganda, qaramlik o'z o'rnini egallaydi. Bunga misol qilib brendga moyillikni olish mumkin.

Qulaylik-iste'molchini sotib olish jarayonidagi va undan keyingi jarayonlardagi amaliy faoliyatlar majmui. Shu jumladan, mahsulotning qadr-qimmatini va xususiyatlari sifatida ham e'tirof etiladi.

Mag'rurlik-iste'molchini har qanday tarzda butunlay ajralib turishni va boshqalardan ajralib turishni xohishini ko'rsatadi. Sifatli mahsulotlarni tavsiya qilganda, maslahatchilar mijozning noyob va betakrorligini, taklif etilayotgan tovarlarni sotib olish bilan, u boshqalarga sotib olingan narsalarni namoyish etish va ularning taassurotlarini qo'zg'atishga qodir holda, yuqori turmush darajasiga qadam qo'yadi.

Yangilik-insonning o'zgarishi, mavjud obyektlar va pozitsiyalarni yangilashga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq, yangilik uchun muhim omil yangi taassurotlarni o'rganishdir, chunki bu har doim odamlarni o'ziga jalb qiladi.

Tejamkorlik-ushbu xususiyat deyarli barcha tovarlarni sotib olishda yuzaga keladi, ammo bu farmatsevtik mahsulotlarda taxmin qilinishi mumkin bo'lgan hal qiluvchi ahamiyatga ega emas. Mahsulotning afzalliklari bilan taqqoslaganda narx ko'pincha ahamiyatsiz, ammo bu yordamchi sifat kafolati sifatida savdo dvigatelidir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dori vositalariga talab – iste'molchilarning, bemorlarning moliyaviy va iqtisodiy imkoniyatlari asosida dori vositalarini sotib olish istagi, iste'moli tushuniladi. To'lov qobiliyatiga ega bo'lgan ehtiyoj talab deb ataladi. Shu sabab aynan "talab" toifasi iqtisodiy nuqtai nazardan har qanday bozorni harakatga keltiruvchi vosita hisoblanadi. Talabga turli omillarning ta'sir etish darajasiga qarab esa istiqboldagi ko'rsatkichlarini aniq belgilab olish mumkin. Talabning kattaligi farmatsevtika bozorining amaldagi sig'imini tavsiflaydi.

Dori vositalariga talabning shakllanishiga quyidagi omillarning ta'siri ko'rsatilgan: ^[7]

1. Iqtisodiy omillar – aholining daromadlari va ularning ijtimoiy guruhlariga taqsimlanishi, chakana baholar, mahsulot, tovar, dori vositalariga, tibbiy buyumlarga taklifining hajmi va tarkibi, aholini ijtimoiy himoya qilish fondlari, aholining shaxsiy xo'jaliklaridan oloyotgan mahsulot, dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika va uzoq muddat ishlatiladigan uy-ro'zgor vositalari bilan ta'minlanganligi va boshqalar.
2. Ijtimoiy omillar – aholining ijtimoiy va malakalari bo'yicha tarkibi, ularning bilim va madaniy saviyalari, tarixiy urf-odatlar, an'analar, milliy bayram, moda va boshqalar.
3. Demografik omillar – aholining soni, uning tarkibi, yoshi, jinsi, oila a'zolarining soni va o'rtacha hajmi bilan o'zgarishi va hokazo.
4. Tabiiy iqlim sharoiti – yil davomida fasllarining uzun-qisqaligi, hududning reliefi va boshqalar. Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaga talabning o'sib borish qonuniyatlari.

Dori vositalariga bo'lgan taklif – ma'lum davr ichida farmatsevtika bozoriga olib chiqilgan yoki olib chiqilishi mumkin bo'lgan dori vositalari va dorixonada xizmat ko'rsatish hajmini bildiradi.

Uning ko'rinishi ulgurji savdo bazalari, omborlarida, chakana savdo bilan shug'ullanuvchi dorixona shoxobchalari, farmatsevtika bozori, dorixonani xizmat ko'rsatishi va boshqalarda iste'molchilarga sotishga qo'yilgan va zaxirada turgan dori vositalari va dorixonada xizmat ko'rsatish, dori vositalarining ulgurji vositachilar shaklida bo'ladi.

An'anaviy dori vositalarini ishlab chiqaruvchi korxonani boshqarish farmatsevtik marketingi strategiyasining tarkibiy elementlari sifatida "Kerakli joyda, kerakli vaqtda (R1ase) va kerakli narx bo'yicha (Rrise) kerakli mahsulot (Rrodust)" farmatsevtika marketingi MIKSning tarkibiy qismlariga ta'sir etish hisoblanadi.

Talabni o'rganish dori vositalarining haqiqiy iste'molini o'rnatish, ularning iste'moliga ta'sir etuvchi dinamikani va bir qator omillarni hisobga olgan holda talab shakllarini aniqlash bilan bog'liq. Shuning uchun dori vositalarini sotishdagi vaziyatni o'rganishdan asosiy maqsad ularni sotishning o'ziga xos holati talabga qay darajada mos kelishini, bu ko'rsatkichlar yaqin kelajakda qanday o'zgarishini va bu borada qanday choralar ko'rish zarurligini aniqlashdan iborat. Aholini va tibbiyot muassasalarini dori vositalari va boshqa mahsulotlar bilan muammosiz ta'minlashga erishish, tibbiy maqsadlarda, ularning barchasi dorixonalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatishini tushunish lozim.

Talabni tizimli tahlil qilishning asosi talab to'g'risidagi barcha mavjud ma'lumotlar manbalaridan: statistik, sotsiologik tadqiqotlar ma'lumotlari, buxgalteriya va moliyaviy hisoblar va boshqalardan foydalanish hisoblanadi. Shuning uchun talabni o'rganish tizimining funksional tuzilishi ana shunday muammolarni hal qilishga qaratilgan. Talab haqidagi ma'lumotlarni hisobga olish va tahlil qilish, talabni prognozlash, talab to'g'risidagi ma'lumotlar asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish kabilarga asos bo'lib hisoblanadi.

Farmatsevtika mahsulotlariga bo'lgan talabni ikki yo'nalishda o'rganish maqsadga muvofiq:

- har xil turdagi talablar miqdoriy xususiyatlarini va uning rivojlanish intensivligini aniqlash;
- talabni shakllantiruvchi omillarni o'rganish.

Farmatsevtik mahsulotlar bo'lgan talabning turlari va xususiyatlari jadvalda keltirilgan.

1-jadval: Farmatsevtik mahsulotlar bo'lgan talabning turlari va xususiyatlari¹

Shakllanishi	Talab turlari	Xususiyati
Qoniqish darajasi	Yuqori	Xaridor iste'mol uchun xarid qilishi mumkin bo'lgan real miqdori
	Amalga oshirilgan	Xaridor iste'mol uchun xarid qilingan mahsulotlarning haqiqiy soniga teng
	Qondirilmagan, jumladan	Haqiqiy va amalga oshirilgan talab turlari o'rtasidagi farqqa teng
	Real qondirilmagan	So'ralgan, biroq sotib olinmagan miqdorga teng
	Yashirin qondirilmagan	So'ralgan, biroq o'rniga boshqa preparat sotib olingan miqdor asosida aniqlanadi
Shakllanish holati bo'yicha	Institutsional iste'mol	Farmatsevtika yordamini ko'rsatish uchun ajratilgan mablag'lar miqdori va farmatsevtika mahsulotlarini etkazib berish hajmi bilan belgilanadi.
	Oraliq iste'mol	Bu retsept bo'yicha tarqatish miqdori va dori vositalarining boshqa (ambulatoriyadan tashqari) darajalarida ko'rsatiladigan dori vositalarining hajmi bilan tavsiflanadi.
	Bilvosita shakllangan	Farmatsevtika tovarlari va xizmatlari uchun aholi tomonidan to'lanadigan miqdoriga teng
Talab ko'lami bo'yicha	Makro talab	Butun aholining tovar guruhi yoki tovarlar to'plamiga bo'lgan talabi
	Mikro talab	Muayyan mahsulot yoki uning assortimenti xilma-xilligiga maqsadli bozor talabi
Bozor holatiga ko'ra	Salbiy	Farmatsevtik mahsulotlarga minimal talab yoki bozorda sezilarli talabning yo'qligi; xaridorlarning ushbu mahsulotga salbiy munosabatini aks ettiradi
	Yo'qotilgan	Xaridorning mahsulotga befarqligining natijasi, bu holda u mahsulotni o'zi uchun foydasiz deb hisoblab, sotib olmaydi.
	Yashirin	Ko'pgina iste'molchilar biror narsaga ehtiyoj sezganda paydo bo'ladi, lekin uni qondirilmaydi, chunki bozorda bunday dori vositalari yo'q, yoki etarli emas.
	Haddan tashqari yuqori talab	Farmatsevtik mahsulotlarga bo'lgan talabning yuqori o'suvchan va taklifidan ancha yuqori holatni anglatadi.
	Mutanosib talab	Kompaniyaning bozorga taklif qilayotgan barcha mahsulotlariga iste'molchilarning doimiy talabi
Shakllantirish xususiyati bo'yicha	Potensial (yopiq)	Xarid qilish qobiliyati, potensial iste'molchilar soni va ularning ehtiyojlari darajasi bilan belgilanadi
	Paydo bo'layotgan	Yangi va kam ma'lum bo'lgan farmatsevtik mahsulotlarga bo'lgan talab
	To'liq shakllangan	Ko'proq brend bo'lgan mahsulotlarga bo'lgan to'liq shakllangan talab tushuniladi, jumladan "Parasetamol" dorisiga bo'lgan talab
	Kechiktirilgan (kumulyativ)	Turli sabablarga ko'ra qoniqtirilmagan talab (vaqtinchalik yuqori narx, tovar etishmasligi) bepul naqd pul bilan ta'minlangan.
	Vahimali (vahima)	Iste'mol bozorida vaziyat inflyatsiya, narxlarning ko'tarilishi va boshqalar tufayli talabning yuqori o'sishi. Masalan, Covid-19 pandemiyasi sharoitida yuzaga kelgan holat
Rivojlanish tendensiyasi bo'yicha	Dinamik o'suvchi talab	
	Barqaror talab	
	Dinamik pasayib boruvchi talab	
Sotib olish jarayonida mijozlar xulq-atvor xususiyati bo'yicha	Qattiq tuzilgan (qattiq)	Muayyan mahsulotga oldindan o'ylangan talab qo'yiladi va uni boshqa, hatto bir hil mahsulot bilan almashtirishga imkon bermaydi.
	Muqobil (yumshoq)	Dorixonada mahsulot va uning xususiyatlari bilan tanishish jarayonida nihoyat shakllangan, mahsulotni almashtirishga ruxsat beriladigan holat.
	Impulsiv	To'g'ridan-to'g'ri dorixonada oldindan ko'rib chiqilmasdan, sotuvchining reklama, tovarlarni namoyish qilish yoki takliflari ta'siri ostida sodir bo'ladigan talab

1 Muallif tomonidan ilmiy manbalarni umumlashtirish asosida tuzilgan

Farmatsevtika mahsulotlariga talabning miqdoriy qiymati quyidagilar bilan belgilanadi:

- institutsional va yakuniy iste'molchilarning xarid qobiliyati;
- farmatsevtika tovarlari va xizmatlarini etkazib berish hajmi.

Talabni qondirish tasnifiga ko'ra ham o'lchash mumkin. Buning uchun haqiqiy, amalga oshirilgan va qondirilmagan talabning hajmi, nosozliklar va almashtirishlarning tuzilishi va hajmi hisoblab chiqiladi.

Talabning qondirilmaganligi sabablari har xil bo'lishi mumkin: dorixonada dori vositalarining yo'qligidan (etkazib beruvchilardan dori yo'qligi, buyurtmaning kech taqdim etilishi yoki uning hajmini noto'g'ri belgilab qo'yilganligi sababli) xaridorlarning dori sotib olishdan bosh tortishi yoki yuqori narx tufayli xarid qilmasligi mumkin. Ushbu sabablarni aniqlash keyingi davrda oqilona boshqaruv qarorini qabul qilish imkonini beradi.

Talabning rivojlanish intensivligini aniqlash har bir tovarlar guruhidagi yoki umuman tovarlar guruhidagi taklif, sotish va balans dinamikasini tahlil qilish imkonini beradi.

Mahsulotlarni etkazib berish tezligi va sotish tezligining nisbati ushbu guruh tovarlari bilan to'yinganlik darajasini tavsiflaydi. Taklifning o'sish sur'atlari sotishning o'sish sur'atlaridan biroz yuqori bo'lishi kerak, aks holda qoniqtirilmagan talab paydo bo'ladi. Ta'minot tezligining amalga oshirish tezligidan sezilarli darajada oshib ketishi bilan tovarlarni saqlash, sotish xarajatlari va hatto saqlash muddati tugaganligi sababli uning yo'qolishi mumkin.

Dinamika ko'rsatkichlari sifatida o'sish yoki pasayishning mutlaq ko'rsatkichlari, shuningdek nisbiy ko'rsatkichlar ishlatilishi mumkin: asosiy (ma'lum bir bazaviy davrga nisbatan hisoblangan) va zanjirli (keyingi ko'rsatkichning oldingisiga nisbati sifatida hisoblanadi).

Talab hajmiga ikki guruh omillar hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi:

- 1) dorixona mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojni shakllantiruvchi omillar, chunki talab ehtiyojning namoyon bo'lish shaklidir (bu omillarning tasnifi yuqorida muhokama qilingan);
- 2) iqtisodiy ko'rsatkichlar guruhi (mahsulot narxi va uning analogi, xaridorning daromadi va boshqalar), chunki talab to'lovga qodir ehtiyojdir.

Ayrim omillarning talabning kattaligiga ta'sir darajasini turli usullar bilan aniqlash mumkin, masalan, korrelyatsiya koeffitsiyentlari yoki elastiklikni hisoblash. Talab va uni tashkil etuvchi omil o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatishning usullaridan biri bu Spearmanning darajani tuzatish koeffitsiyentini hisoblashdir.

Ushbu hisoblash usulidan foydalanganda quyidagi mezonlarga asoslanadi:

- 1) mantiqiy ravishda qiziqish omillari hisobga olinadi, masalan iste'molchilarning yoshi, jinsi, daromadi, kasallikning davomiyligi, shifokorga borish chastotasi, dorixona, to'lov shartlari va boshqalar;
- 2) talab va qiziqish omillarini ro'yxatga olish varaqasida ro'yxatdan o'tkazish;
- 3) talab ko'rsatkichlarini (U bog'liq o'zgaruvchi) va har bir omil belgisini (X mustaqil o'zgaruvchilar) asosida tartiblash. Reyting kichikroq ko'rsatkichdan kattaroq ko'rsatkichga o'tkazish va ekspert baholash;

Farmatsevtika marketingi yangi bemorlarni jalb qilish va ma'lum bir dori yoki davolash rejasi haqida xabardorlikni oshirish uchun foydalaniladigan oflayn va raqamli strategiyalarni anglatadi. Farmatsevtika marketingi shifokorlarga yoki to'g'ridan-to'g'ri iste'molchilarga sotishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Farmatsevtika kompaniyalari kasalliklarni va boshqa tibbiy muammolarni davolash, oldini olish, tashxislash yoki davolash uchun ishlatiladigan dori vositalarini loyihalash, kashf qilish va ishlab chiqish uchun javobgardir. Biroq, kuchli raqobat, tobora murakkablashib borayotgan qoidalar va iste'molchilar bilan munosabatlarni sog'liqni saqlash mutaxassislari bilan amalga oshirishga o'tmoqda.

Shuningdek, farmatsevtika bozorining chakana sektorini rivojlantirishning hozirgi tendensiyasi dorixona tashkilotlari xizmatlariga talabning sezilarli darajada oshishi bo'lib, uning sabablaridan biri retseptsiz dori vositalarini iste'mol qilishning ko'payishi hisoblanadi ^[8].

Nazariy nuqtai nazardan, dori vositalarining yakuniy iste'molchilari shuningdek, boshqa retseptsiz dorixona mahsulotlari, odatda cheklangan va odatiy xarid va iste'mol qarorlariga ega. Shu sababli, dori-darmonlar bozorida iste'molchi tanloviga asosiy ta'sir mahsulot (dori vositasining funksional xususiyatlari), iste'molchi (ijtimoiy-demografik, tibbiy, iqtisodiy xususiyatlar) va xulq-atvor (doimiy va vaziyatli iste'molchi imtiyozlari) omillar hisoblanadi. Bundan tashqari, ushbu omillar doimiy dinamik rivojlanishda bo'lib, bu dori iste'molchilarining xatti-harakatlarida o'zgarishlarga olib keladi.

Sotish samaradorligi dorixonaning daromadlilikiga, shuningdek, xaridlarni amalga oshirishda iste'molchilarning xatti-harakatlariga sezilarli ta'sir qiladi. "Ma'lumki, xilma-xil marketing vositalaridan foydalangan holda, dorixona korxonalarida yanada muvaffaqiyatli rivojlanmoqda, ular farmatsevtika mahsulotlarini sotishda ehtiyojlarning shakllanishiga va keyinchalik iste'molchilarning xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatmoqda" ^[9].

Farmatsevtika bozorida iste'molchilarning xulq-atvorini asosan sotishni samarali tashkil etish va korxonaning marketing siyosati uchun vositalarni ishlab chiqish nuqtai nazaridan ko'rib chiqamiz. "Iste'molchilar harakati - bu iste'molchilarning xatti-harakatlarini tavsiflovchi belgilar va ko'rsatkichlar to'plami, shu jumladan ularning iste'moli afzalliklari, tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talab, iste'mol tarkibi, daromadlardan foydalanish usullari" [10].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Farmatsevtika bozorida iste'molchi xatti-harakatlarining yakuniy bosqichi ko'rsatilayotgan farmatsevtik yordamdan qoniqish/norozilik bo'lganligi sababli, iste'molchining xaridlardan keyingi holatini baholash iste'molchi faoliyatini boshqarish asosida farmatsevtika yordamini takomillashtirishning zaruriy shartidir. Iste'molchilarning xulq-atvorini boshqarishning asosiy vazifalari:

- 1) iste'molchilarning qoniqish darajasini aniqlash;
- 2) iste'molchilarning sodiqligini shakllantirish;
- 3) iste'molchi xatti-harakatlarining mumkin bo'lgan rivojlanishini prognoz qilishdan iborat jarayon bo'lishi va bular sog'liqni saqlash tashkilotlari yoki farmatsevtik agentliklar tomonidan nazorat qilinishi lozim.

Iste'molchi qoniqishini aniqlashda dorixonalar faoliyati uchun asosiy baholash mezonlari ishlab chiqilishi va iste'molchi uchun mazkur mezonlar asosida haqiqiy holatini baholashi lozim.

Iste'molchilarning ma'lum bir dorixonaga ishonchi va sodiqligini shakllantirish xususiyatlarini o'rganish ham muhim vazifalardan hisoblanadi.

Umuman olganda dori vositalarini ishlab chiqaruvchi farmatsevtika korxonalari, ulgurji va chakana dorixonalar farmatsevtik mahsulotlarga bo'lgan talabni o'rganish, uning istiqbollari prognozlash orqali ishlab chiqarish va sotish bo'yicha uzoq muddatli va joriy rejalari ishlab chiqishlari ustivor yo'nalish sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Suyunov N.D. Saipova D.T. Farmatsevtik marketing fanidan o'quv-uslubiy majmua. Toshkent farmatsevtika instituti. 2019-y.
2. Borden, N.H., "The Concept of the Marketing Mix," Journal of Advertising Research, 1964, pp 2-7 and reprinted in: Baker, M.J. (ed), Marketing: Critical Perspectives on Business and Management, Vol. 5, Routledge, 2001, pp 3-4 and available online at Google Books.
3. McCarthy E. J., Shapiro S. J., Perreault W. D. Basic marketing. – Georgetown, ON, Canada : Irwin-Dorsey, 1979. – С. 29-33.
4. Соловьева, Ю.Н. Развитие маркетинговой компетентности как предпосылка внедрения маркетинга взаимоотношений // Вестник Научноисследовательского центра корпоративного права, управления и венчурного инвестирования Сыктывкарского государственного университета, 2014. – № 1. – С. 150-165.
5. Амблер, Т. Практический маркетинг. –СПб.: Издательство "Питер", 2001. – 400 с.
6. Жандезон, Ж. Методы продаж / Жандезон Ж., Кролар Ж.Ф., Лансестр А. Пер. с франц. –М, 1993.
7. Saipova D.T., Ilyasova K.A., Yunusxo'jaev A.A. "Farmatsevtika bozorini boshqarishda marketing". – Amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent. – 2009. – 190 b.
8. Дорофеева В. В., Галкина Г. А., Сударенко К. В. Особенности исследования потребительского поведения на рынке безрецептурных лекарственных препаратов //Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Медицина. – 2013. – №. 2. – С. 27-32.
9. Неретина Е.А. Маркетинг как искусство продаж в обществе потребления // Маркетинг в России и за рубежом, 2016. – № 6. – С. 15-21.
10. Райзберг, Б.А. Современный экономический словарь / Б.А. Райзберг, Л.Ш. Лозовский, Е.Б. Стародубцева. –М.: ИНФРА-М, 2011. – 479 с.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

